

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**

**TURDIMURATOV MAQSUD MUZAFFAROVICH**

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH ASOSIDA AHOLI  
TURMUSH SIFATINI OSHIRISH**

**08.00.02 –Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

UDK: 330.101.541:330.59 (575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Economical Science**

**Turdimuratov Maqsud Muzaffarovich**

Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash asosida aholi turmush sifatini  
oshirish..... 33

**Турдимуратов Максуд Музаффарович**

Повышение качества жизни населения на основе обеспечения  
устойчивого экономического роста..... 27

**Turdimuratov Maksud Muzaffarovich**

Improving the quality of life of the population based on sustainable economic  
growth ..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI**

**TURDIMURATOV MAQSUD MUZAFFAROVICH**

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH ASOSIDA AHOLI  
TURMUSH SIFATINI OSHIRISH**

**08.00.02 –Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Iqt1970 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Jizzax politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xajiev Baxtiyor Dushaboevich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Usmanov Anvar Saidmaxmudovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Umarov Ilxomjon Yuldashevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_ soat \_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi.(Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail:[tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “\_\_\_” \_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023 yil “\_\_\_” \_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**K.K. Mambetjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi v.b., i.f.d., dotsent

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, o`rinbosari i.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush sifati hamda daromadlarini yuksaltirishda iqtisodiy o'sish mexanizmining ahamiyati oshib bormoqda. Jumladan, jahon mamlakatlari bo'yicha " global real YaIM 2022-yilda 3 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 4,0 foizga o'sgan bo'lib, 2023-yilda 5,7 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda. 2021-yilda har o'rtacha ishchiga to'g'ri keluvchi mahsulot ishlab chiqarish yuqori daromadli mamlakatlarda past daromadli mamlakatlardagi nisbatan 13,6 barobarga ko'p bo'lgan. 2021-yilda ishsizlik darajasi 6,2 foizni tashkil etib, 2019-yilga nisbatan global ish vaqtining 4,3 foizi yo'qotilgan"<sup>1</sup>. Shu jihatdan ham bugungi kunda taraqqiyot etgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush sifati oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda keyingi yillarda kechayotgan global o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda mamlakatni barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush sifati oshirish, aholi daromadlarini ortishiga erishish, kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifati oshirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash, barqaror iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga erishish orqali aholi turmush sifati oshirish, aholi daromadini oshirish, kambag'allikni qisqartirish kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlardan hisoblanmoqda.

Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash sharoitida inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish orqali kambag'allikni ikki barobarga qisqartirish, aholi turmush sifati oshirishga ta'sir etuvchi omillarni baholash, iqtisodiyotda raqobatni ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga to'laqonli o'tishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarga ustuvor darajada ahamiyat qaratilmoqda. "Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish"<sup>2</sup> ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va aholi daromadining ko'payishiga hamda iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifati oshirishni prognoz parametrlarini asoslash kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yilga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-

<sup>1</sup> <https://www.un.org/sustainabledevelopment/economic-growth/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni: 74 b.

sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida», 2020-yil 26-martdagi PF-5975-son «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida», 2016-yil 5-oktabrdagi PF-4848-son «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-apreldagi 213-son «2022-2026-yillarda Jizzax viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush sifatini oshirish bilan bog'liq qator izlanishlar xorijlik olimlar M.Yusoff, R.Rajnoha, P.Lesníková, J.Vahančík, Emilio Abad-Segura, Mariana-Daniela González-Zamar<sup>3</sup> va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirish bilan bog'liq tadqiqot ishlari MDH mamlakatlari olimlari L. A. Strijkova, G. O.Kuranov, N.V.Gorodnova, N.A.Samarskaya, E.N.Sochneva, P.D.Kosinskiy, A.G.Chupryakova, K.V.Xaustova, R.T.Burganov, L.A.yelshin, O.A.Nesterova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan<sup>4</sup>.

O'zbekistonda iqtisodiy o'sish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, aholi turmush sifatini oshirish bo'yicha umumnazariy jihatlari N.To'xliev,

---

<sup>3</sup>Yusoff M M. Improving the quality of life for sustainable development. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/561/1/012020/pdf>; Rajnoha, R., Lesníková, P., & Vahančík, J. (2021). Sustainable economic development: The relation between economic growth and quality of life in V4 and Austria. *Economics and Sociology*, 14(3), 341-357. doi:10.14254/2071- 789X.2021/14-3/18; Emilio Abad-Segura, Mariana-Daniela González-Zamar (2021). Sustainable economic development in higher education institutions: A global analysis within the SDGs framework. *Journal of Cleaner Production* Volume 294, 20 April 2021, 126133. [https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S095965262100353X? via%3Dihub](https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S095965262100353X?via%3Dihub).

<sup>4</sup>Стрижкова Л. А., Куранов Г. О. Качество экономического роста как предпосылка повышения эффективности управления социально-экономическим развитием России. *Мир новой экономики*. 2020;14(3):83-96. DOI: 10.26794/2220-6469-2020-14-3-83-96; Городнова Н. В., Самарская Н.А. Повышение качества жизни населения в современных экономических условиях России // *Дискуссия*. -2019. -Вып. 94. - С. 48-58; Соичева Е.Н. Развитие человеческого капитала в России как фактор экономического роста и развития // Пенза-2017, Экономический рост: факторы эффективного развития. Монография, -С. 22-30; Косинский П.Д., Чупрякова А.Г. Экономический рост как функция качества жизни населения региона // *Фундаментальные исследования*. -2016. -№11-5. -С.1021-1025; URL:<https://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=41295>; Хаустова К.В. Тенденции распределения выгод экономического роста в современной России: дисс. к.э.н. 2022. -С. 175;Бурганов Р.Т., Ельшин Л.А., Шарапов А.Р. Концепция инклюзивного роста как механизм обеспечения устойчивого развития национальной экономики // *Экономика, предпринимательство и право*. - 2022. - Том 12. - № 10. - С. 2623-2640. - doi: 10.18334/epp.12.10.116352; Нестерова О.А., Санфирова О.В., Петрова Т.А. Инклюзивный субъект в контексте экономического роста // *Вопросы инновационной экономики*. - 2022. - Том 12. - № 1. - С. 209-222. - doi: 10.18334/vines.12.1.114265.

N.Maxmudov, X.Abulqosimov, B.Berkinov, A.Vaxabov, Sh.Shodmonov, U.Madrahimov, F.B.Shokirova, B.N.Ashurovalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan<sup>5</sup>.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush sifatini oshirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to'liq o'rganilmagan. Mazkur holat dissertatsiya ishida tadqiq etilgan ilmiy-amaliy muammolar va ularni bartaraf etish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajasini belgilab beradi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Jizzax politexnika instituti va Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20714214145 "Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir qiluvchi tashqi omillarni baholash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish" (2020-2022 yy.) mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush sifatini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari:**

barqaror iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirish bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlarni umumlashtirish;

iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikning uslubiy jihatlarini o'rganish;

ilg'or xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirish bo'yicha tajribalarni o'rganish;

iqtisodiy o'sishni hozirgi holati va barqarorlik darajasi hamda aholi turmush sifatini oshirishni belgilovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish;

barqaror iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar asosida tahlil qilish;

barqaror iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga erishishda aholi turmush sifatini oshirish yo'nalishlari hamda aholi daromadini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirish;

---

<sup>5</sup>Бекмуродов А. ва б. Ўзбекистон иқтисодиётни либераллаштириш йилларида. 1-5-қисмлар. – Т.: 2005. – 310, Махмудов Н. Иқтисодий ўсиш моделлари ва улардан макроиқтисодий таҳлилда фойдаланиш йўллари // Иқтисод ва молия. – Т.: 2016 йил №3. 2-8 б; Махмудов Н.М. Макроиқтисодий барқарорлик ва иқтисодий ўсишни таъминлашда пул-кредит сиёсатининг ролини ошириш йўллари // Республика илмий-амалий конференция материаллари. - Т.: ТДИУ. 2015 йил, 23-29 б; Абдулқосимов Х. "Макроиқтисодий тартибга солиш ва Ўзбекистоннинг барқарор ривожланиши. Монография". Т. : "Академија", 2011 й. 7. Ўлмасов А., Вахабов А. "Иқтисодиёт назарияси". Дарслик.Т.: "Iqtisod-Moliya", Вахабов А. Иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш ва барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашни методологик жиҳатлари // "Ўзбекистон иқтисодиётини институционал ривожлантириш: ютуқлар, муаммолар, ечимлар" номли анжуман материаллари. –Т.: ТДИУ, 2016 йил 12 март; Шодиев Т. Ишлаб чиқаришни модернизациялаш, интеллектуаллаштириш ва диверсификациялаш асосида иқтисодий ўсиш сифатини ошириш// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. –Т.: 2011, №1; Ш.Шодмонов (ва бошқ.) Иқтисодиётда тежамкорлик ва мутаносибликни таъминлашнинг назарий-услубий асослари. ТДИУ. Монография. –Т.: ADIBNASHRIYOTI, 2010. -256 б.; Мадраҳимов У.А. Ўзбекистонда барқарор иқтисодий ўсиш сифатини ошириш йўллари. И.ф.д.автореферати. Тошкент. 2017 й.17 б.

aholi turmush sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish va uning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida O'zbekiston Respublikasini barqaror iqtisodiy o'sishi va aholi turmush sifatini oshirish omillari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush sifatini oshirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida tizimli tahlil, statistik-iqtisodiy tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, qiyosiy tahlil hamda prognozlash usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra muayyan davr mobaynida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan yoki umumiy iqtisodiyotga nisbatan ortishini ifodalovchi "iqtisodiy o'sish" tushunchasi milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar butun iqtisodiy mexanizmi amal qilishining yakuni, asosiy natijalardan biri nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga erishishni ta'minlash mexanizmi aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish imkonini beruvchi iqtisodiy jarayonlarning mikro (yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish), mezo (mehnat unumdorligini oshiruvchi mikroklasterlar tashkil etish) hamda makro (faol investitsiya siyosati yuritish) darajalaridagi dastaklarini vertikal uyg'unlashtirish orqali takomillashtirilgan;

aholi turmush sifatini oshirish omili sifatida inson salohiyatidan maksimal foydalanish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali inklyuziv o'sish mezonlaridan bo'lgan kambag'allik darajasini qisqartirish, institutsional o'zgarishlar asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni tartibga solish mexnizmlari uslubiy jihatdan takomillashtirilgan;

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda aholi turmush sifati oshirishning 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush sifati, kambag'allik tushunchalari nazariy-uslubiy yondashuvlar orqali foydalanilgan;

respublikani barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan;

aholi turmush sifatini oshirish, uning tarkibiy komponentlari orqali jamiyatda turli ijtimoiy guruhlarni turmush kechirishiga salbiy ta'sirini kamaytirish asoslangan;

barqarorlik iqtisodiy o'sish, aholi turmush sifati, aholi daromadi kabi ko'rsatkichlar, ularni ijobiy o'zgarishi bilan bog'liq mexanizmini tizimli o'rganish, aholi turmush darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan samarali foydalanishga doir ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining haqqoniyligi foydalanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligidan olingan, boshqa rasman e'lon qilingan

amaliy ma'lumotlar tahlilga asoslanganligi hamda tegishli xulosa va tavsiyalar vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan ilmiy xulosa va takliflardan barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush sifati ko'rsatkichlari tizimi, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi soha va tarmoqlarni, omillar va manbalarni aniqlash asosida uning sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarning ilmiy apparatini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir qiluvchi omillar va manbalarning o'ziga xos jihatlari, barqaror iqtisodiy o'sishni oshirish istiqbollari, aholi turmush sifatini oshirish mexanizmini ishlab chiqish, «Iqtisodiyot nazariyasi» va «Makroiqtisodiyot» fanlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush sifatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra muayyan davr mobaynida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish hajmining aholi jon boshiga nisbatan yoki umumiy iqtisodiyotga nisbatan ortishini ifodalovchi "iqtisodiy o'sish" tushunchasining milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar butun iqtisodiy mexanizmi amal qilishining yakuni, asosiy natijalardan biri nuqtai nazaridan takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 28-03-19/6-392-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar butun iqtisodiy mexanizmi amal qilishining yakuni, asosiy natijalardan biri sifatidagi "iqtisodiy o'sish" tushunchasi bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga erishishni ta'minlash mexanizmi aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish imkonini beruvchi iqtisodiy jarayonlarning mikro (yuqori daromadli ish o'rinlari yaratish), mezo (mehnat unumdorligini oshiruvchi mikroklasterlar tashkil etish) hamda makro (faol investitsiya siyosati yuritish) darajalaridagi dastaklarini vertikal uyg'unlashtirish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 28-03-19/6-392-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aholi turmush farovonligini oshirishning ustivor yo'nalishlari, hududiy aholi turmush farovonligini oshirish mexanizmi va undan samarali foydalanish jarayonlarini tartibga solish usullarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirishga xizmat qilgan;

aholi turmush sifatini oshirish omili sifatida inson salohiyatidan maksimal foydalanish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali inklyuziv o'sish

mezonlaridan bo'lgan kambag'allik darajasini qisqartirish, institutsional o'zgarishlar asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashni tartibga solish mexnizmlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 28-03-19/6-392-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlarda kambag'allikni kamaytirish tendensiyalarini mustahkamlash bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda aholi turmush sifati oshirishning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining 28-03-19/6-392-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga mos ravishda aholi turmush sifati oshirishninguzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash imkonini yaratgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy amaliy konferensiyada muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 11 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shu jumladan 2 ta respublika va 2 ta nufuzli xorijiy jurnallarda, shuningdek ilmiy amaliy konferensiya to'plamlarida 2 ta ma'ruza tezisi chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 124 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'yekti, predmeti ifodalangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Barqaror iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida barqaror iqtisodiy o'sish, aholi turmush sifatini oshirishning ilmiy nazariy, uslubiy jihatlari, iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar, ilg'or xorijiy

mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirish tajribasi chuqur o'rganilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda "iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifati" tushunchasi har xil ma'nolarda foydalaniladi: "iqtisodiy o'sish", "barqaror iqtisodiy o'sish", "aholi turmush darajasi", "turmush sifati", "aholi turmush darajasi va farovonligi" kabi tushunchalar farqlanadi. Shuningdek, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash asosida aholi turmush sifatini oshirish asosan o'z ichiga uchta tushunchalar orqali shakllanadi: "barqaror iqtisodiy o'sish", "aholi turmush darajasi" va "aholi turmush sifati".

Bir qator iqtisodchilar "iqtisodiy o'sish-aholi jon boshiga mamlakatda yaratilgan YaIM hajmining oldingi yilga nisbatan o'sishi orqali o'z ifodasini topadi"<sup>6</sup>". Ularni fikricha, iqtisodiy o'sish shartlari sifatida quyidagilar: ya'ni joriy yilda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot (YaIM) avvalgi yilga nisbatan ko'proq bo'lishini, YaIMni o'sish sur'ati aholi o'sish sur'atidan yuqori bo'lishini, ya'ni kishi boshiga ishlab chiqarilgan YaIMni ko'payishini ko'rsatgan.

Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi lug'atida "barqaror iqtisodiy o'sish- bu milliy iqtisodiyotni salbiy yoki nolga teng bo'lgan real o'zgaruvchan mezon va ko'rsatkichlar uzluksiz mutanosib sur'atda o'sishiga"<sup>7</sup> yoki "aholini turmush sifatini yaxshilash uchun xududni rivojlanish imkoniyatlarini qadrlash hamda resurslardan samarali foydalanish hamda jamiyatga keng imkoniyatlar yaratish barqaror rivojlanishga erishish katalizatori bo'ladi"<sup>8</sup>."Barqaror iqtisodiy o'sishni maqsadi – bu ish o'rinlarini, aholi daromadlarini ko'paytirish orqali aholi turmush farovonligini, turmush sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonini yaratish, kengaytirish, texnika-texnologiyalarni modernizatsiyalash orqali korxonalarini saqlab qolishdan iborat"<sup>9</sup>". "Agar biror mamlakat iqtisodiy o'sishga erishayotgan bo'lsa, bu mamlakatda aholini turmush sifatini sezilarli darajada oshishi"<sup>10</sup> dir.

MDH olimlaridan L.A.Strijkova, G.O.Kuranovlar fikricha "inklyuziv o'sish – bu nafaqat iqtisodiy faoliyat natijalarini byudjet tizimi orqali qayta taqsimlash hisobiga mamlakat aholisi turmush darajasini va turmush sifatini mustaqil ravishda ta'minlashga imkon beradi"<sup>11</sup>". Jumladan, U.A.Madraximov "iqtisodiy o'sish jamiyat taraqqiyoti yo'lini, uning rivojlanish darajasini, tovar va xizmatlar miqdorini o'sishi hamda o'zgarishida o'z ifodasini topadi, ...jamiyatda iqtisodiy o'sish natijasida takror ishlab chiqarish ortadi, ishlab chiqarish kuchlari ko'payadi.

---

<sup>6</sup>Набихужаев А., Шеров Ю., Султонов П. Макроиктисодий барқарорлик кўрсаткичлари ва уларнинг Ўзбекистондаги динамикаси. // Иқтисод ва молия.-№2 , -135 б.

<sup>7</sup>Словарь современной экономической теории Макмиллана – Москва,1997. -с. 471.

<sup>8</sup> Yusoff M. M. Improving the quality of life for sustainable development. IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/1755-1315/561/1/012020/pdf>; -pp. 1.


<sup>9</sup>Hammer, J. & Pivo, G. (2016). The triple bottom line and sustainable economic development theory and practice. *Economic Development Quarterly*, 31(1), 25-36 p.7. doi:10.1177/0891242416674808.

<sup>10</sup>Androniceanu, A., Dragulanescu, I., & Mioara Duca (2018). Economic Growth and Quality of Life in Romania. In Soliman, KS ed.: *Innovation management and education excellence through vision 2020*, 31st International-Business-Information-Management Association Conference, Milan, 1862-1870.

<sup>11</sup>Стрижкова Л.А., Куранов Г.О. Качество экономического роста как предпосылка повышения эффективности управления социально-экономическим развитием России. *Мир новой экономики*. 2020;14(3):p. 85.

Natijada aholi turmush darajasi moddiy jihatdan yaxshilanadi va uning turmush farovonligi esa ortadi<sup>12</sup>”.

Mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘shish jihatlari asosidagi samaradorlik hamda sifat o‘zgarishlarini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarda uning tarkibiy qismlarini aniqlash ham uslubiy, ham amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Iqtisodiy o‘shish sifati va uning ijobiy darajasini ta‘minlashning tarkibiy qismlari<sup>13</sup>**

Demak, iqtisodiy o‘shish–milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar butun iqtisodiy mexanizmi amal qilish yakuni, asosiy natijalardan biridir. Iqtisodiy o‘shish kategoriyasiga mualliflar tomonidan berilgan ta‘riflarni ilmiy-nazariy va o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib muallif: *“iqtisodiy o‘shish - milliy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni butun iqtisodiy mexanizmini amal qilish yakuni hamda asosiy natija, yalpi ichki mahsulotning qay darajada o‘zgarishiga aytiladi. Uning samaradorligi–bu iqtisodiy o‘shishga qanday xarajatlar bilan erishganligi, YaIM o‘shishini xarajatlar o‘shishiga nisbati orqali aniqlanadi<sup>14</sup>”* deb o‘z ta‘rifini ishlab chiqqan.

Aholi turmush sifatini aniqlovchi integral indekatorlari quyidagilar: inson salohiyati taraqqiyoti indeksi (ISTI); jamiyat intellektual salohiyati indeksi; jon boshiga to‘g‘ri keluvchi inson kapitali; aholini yashovchanlik indeksi va boshqalar. Aholi turmush farovonligini obektiv ko‘rsatkichlariga: aholi daromadi; oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari iste‘moli; aholini uy-joy bilan ta‘minlash; ijtimoiy infrastruktura bilan ta‘minlash; ta‘lim darajasi va sifati hamda aholi turmush sifatini sub‘ektiv jihatlari aks ettiruvchi aholi madaniyati; aholini mamlakat miqyosida yashash sharoitlaridan qoniqish; aholini kelajak hayotga bo‘lgan ishonch darajasi va boshqalar (2-rasmga qarang).

<sup>12</sup>Мадрохимов У.А. Ўзбекистонда барқарор иқтисодий ўсиш сифатини ошириш йўллари: и.ф.д. автореф. - Тошкент. БМА, 2017 й. -17 б.

<sup>13</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>14</sup>Muallif ta‘rifi

Aholini turmush sifatini aniqlashda qo‘llaniladigan indikatorlar soni ko‘p bo‘lib, ularning ichidan aholini obodonlashtirish, uy-joy va maishiy xizmat, bilim darajasi hamda ta‘lim olishni davomiyligi ko‘rsatkichlarini roli ortmoqda



**2-rasm. Aholini turmush sifati toifasi bo'yicha tarkibi<sup>15</sup>.**

Demak, iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganilib quyidagi xulosa va takliflar aniqlangan: respublikada iqtisodiy o'sish darajasini oshirish, ishlab chiqarish va moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash zarur; iqtisodiy o'sishni inklyuzivligini ta'minlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat-notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda strategiya va dasturlarni; aholi daromadlari tabaqalashuvini o'rganish bo'yicha tizimli ishlarni olib borishni ta'minlash.


Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi turmush sifatini oshirish darajasi tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida iqtisodiy o'sishni hozirgi holati va barqarorlik darajasi, aholi turmush sifatini oshirishni belgilovchi ko'rsatkichlar, barqaror iqtisodiy o'sish asosida aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik yondoshuvlar orqali tahlil etilgan.

Iqtisodiy o'sish-aholi jon boshiga YaIM hajmini mamlakatda yaratilgan qismini oldingi yildagi YaIMga nisbati orqali aniqlanadi. Demak, iqtisodiy o'sishni shartlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: birinchidan, hozirgi yildagi ishlab chiqarilgan YaIMni o'tgan yildagi YaIMga nisbatan ortishi; ikkinchidan YaIMni o'sish sur'ati aholini o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi, ya'ni aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaIMni ko'payishidir.

O'zbekiston Respublikasida 2010-2022-yillar oralig'ida iqtisodiy o'sish va aholi jon boshiga YaIMni iqtisodiy rivojlanishini 4 bosqichga bo'lib o'rganish mumkin. Jumladan:

<sup>15</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Birinci bosqich, 2010-2016-yuqori o‘shish sur‘ati yillari bo‘lib, bu davrda mamlakatda YaIM 7,1-5,9 foizdan ziyod o‘sgan. Ammo aholi jon boshiga YaIM har yili 4,1-5,6 foiz o‘shishi ta‘minlangan;



**3-rasm. O‘zbekistonda 2010-2022-yillar oralig‘ida iqtisodiy o‘shishning umumiy va aholi jon boshiga o‘shish sur‘atlari<sup>16</sup>, foizda**

Ikkinchi bosqich, 2017-2019-barqarorlashtirish yillari bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasini rivojlanish strategiyada makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash orqali 4,4-6,0 foiz iqtisodiy o‘shishga erishilgan. Lekin aholi jon boshiga YaIM har yili 2,7-4,0 foizga o‘sgan;

Uchinchi bosqich, 2020-yilda pandemiya davriga to‘g‘ri kelib, uni ta‘siri hisobiga tarmoq va sohalar iqtisodiyotida sezilarli darajada pasayish kuzatilmagan bo‘lsada, mamlakatimizda YaIM 2,0 foiz, aholi jon boshiga esa 0,1 foiz o‘shishi ta‘minlangan;

To‘rtinchi bosqich 2021-2022-yillarda iqtisodiy o‘shish sur‘ati jonlantirildi va yangi taraqqiyot strategiyasi asosida YaIMni o‘shish sur‘ati 2021-yilda 7,4 foizni, 2022-yilda esa 5,7 foizga ta‘minlandi. Lekin aholi jon boshiga YaIM o‘shishi 2021-yilda 5,3 foiz, 2022-yilda 3,5 foizni tashkil etgan. Respublikada iqtisodiy o‘shishni umumiy va aholi jon boshiga nisbatan sur‘atlari oshgan.

Aholi turmush sifatini oshirish omili sifatida inson salohiyatidan maksimal foydalanish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali inklyuziv o‘shish mezonlaridan bo‘lgan kambag‘allik darajasini qisqartirish, institutsional o‘zgarishlar asosida makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashni tartibga solish mexanizmlari uslubiy jihatdan baholash reytingi asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha 3 ta indikator va 20 ta subindikator orqali natijalar oraliq mezonlari aniqlangan, o‘shish sur‘ati yuqori bo‘lgan xududlar bo‘yicha tasnif keltirilgan.

<sup>16</sup>Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган

**O‘zbekiston Respublikasidagi mavjud hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting baholash tizimini asosiy va subindikator mezonlari bo‘yicha tahlili<sup>17</sup>, (2021-2022-yil yakunlariga ko‘ra)**

Hududlar (j)	Reyting mezonlari (i)	Qoraqalpog‘iston Respublikasi k <sub>11</sub>	Andijon viloyati k <sub>12</sub>	Buxoro viloyati k <sub>13</sub>	Jizzax viloyati k <sub>14</sub>	Qashqadaryo viloyati k <sub>15</sub>	Navoiy viloyati k <sub>16</sub>	Namangan viloyati k <sub>17</sub>	Samarqand viloyati k <sub>18</sub>	Surxondaryo viloyati k <sub>19</sub>	Sirdaryo viloyati k <sub>110</sub>	Toshkent viloyati k <sub>111</sub>	Farg‘ona viloyati k <sub>112</sub>	Xorazm viloyati k <sub>113</sub>	Toshkent shahri k <sub>114</sub>	Max miqdor k <sub>ij</sub>
		<b>I. IQTISODIY RIVOJLANISH VA SAMARADORLIK INDIKATORLARI</b>														
1	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi hududiy mahsulot (YaHM)	3	4	4	4	3	5	2	3	1	4	5	3	4	5	5
2	Iste‘mol narxlar indeksi	5	4	4	4	4	3	5	4	3	5	3	3	5	5	5
3	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan hududiy sanoat mahsulotlari hajmi	4	4	4	3	2	5	2	2	1	4	5	3	3	5	5
4	Sanoatning YaHMdagi ulushi	4	5	3	2	2	5	2	2	1	4	5	3	3	5	5
5	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar hajmi	2	2	3	2	1	3	1	2	1	2	3	2	2	5	5
6	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan chakana tovar aylanmasi hajmi	2	3	4	3	2	4	3	3	3	2	4	3	3	5	5
7	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi	3	2	4	3	2	5	2	3	2	5	4	1	2	5	5
8	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan hududiy eksport hajmi	4	3	4	2	2	3	4	3	3	4	2	3	5	5	5
<b>II. MEHNAT BOZORINING SAMARADORLIK INDIKATORLARI</b>																<b>30</b>
9	Aholi bandligi darajasi	3	4	4	4	3	4	3	3	3	3	5	3	3	5	5
10	Ishsizlik darajasi	3	4	4	3	2	5	4	4	2	2	5	3	4	5	5
11	Vaqtincha ishlash uchun xorijga ketganlar sonining iqtisodiy faol aholi umumiy sonidagi ulushi	3	4	4	4	3	4	4	3	4	4	5	4	4	5	5
12	Mehnat unumdorligi	5	4	5	4	3	3	5	5	4	3	4	3	4	4	5
13	Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan aholi umumiy daromadlari	1	3	4	3	2	5	1	3	2	3	4	1	4	5	5
14	Kambag‘allik darajasi	5	4	4	4	4	4	4	4	3	5	3	3	4	5	5
<b>III. DEMOGRAFIK INDIKATORLARI</b>																<b>30</b>
15	Tug‘ilganlar soni	2	5	2	2	5	1	4	5	4	1	4	5	2	3	5
16	O‘lganlar soni	3	4	2	2	4	1	4	5	4	1	5	5	3	5	5
17	Aholini zichligi	1	5	1	2	2	1	4	3	2	3	3	5	4	5	5
18	Onalar o‘limi	4	3	3	2	4	1	1	2	5	2	5	5	3	3	5
19	Tug‘ilishda kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi	4	4	5	5	4	5	4	4	4	4	4	5	4	5	5
20	Go‘daklar o‘limi soni	3	5	2	2	5	1	5	4	4	1	4	3	3	4	5

Har bir indikator va subindikator chegara mezoni ball eng kattasi (max) etalon sifatida olinib,  $x_{ij}$  topilgan.

<sup>17</sup>Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси

$$x_{ij} = \frac{k_{ij}}{\max k_{ij}} \quad (1)$$

i-reyting mezon ko'rsatkichi soni;

j- respublikadagi hududlar soni;

$k_{i1}$  dan  $k_{i14}$  gacha mezonlar bo'yicha baholab aniqlanadi.

O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi indikatorlar reyting baholash tizimi mezonini 2-jadval orqali  $x_{ij}$  matritsasi aniqlandi:

## 2-jadval

### O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini matritsaviy reyting indikatorlari<sup>18</sup>

<i>I</i>	$x_{ij}$	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Andijon viloyati	Buxoro viloyati	Jizzax viloyati	Qashqadaryo viloyati	Navoiy viloyati	Namangan viloyati	Samarqand viloyati	Surxondaryo viloyati	Sirdaryo viloyati	Toshkent viloyati	Farg'ona viloyati	Xorazm viloyati	Toshkent shahri	Maxkoeffitsienti
<b>I. IQTISODIY RIVOJLANISHVASAMARADORLIKINDIKATORLARI</b>																
1	$x_{1j}$	0,6	0,8	0,8	0,8	0,6	1	0,4	0,6	0,2	0,8	1	0,6	0,8	1	1
2	$x_{2j}$	1	0,8	0,8	0,8	0,8	0,6	1	0,8	0,6	1	0,6	0,6	1	1	1
3	$x_{3j}$	0,8	0,8	0,8	0,6	0,4	1	0,4	0,4	0,2	0,8	1	0,6	0,6	1	1
4	$x_{4j}$	0,8	1	0,6	0,4	0,4	1	0,4	0,4	0,2	0,8	1	0,6	0,6	1	1
5	$x_{5j}$	0,4	0,4	0,6	0,4	0,2	0,6	0,2	0,4	0,2	0,4	0,6	0,4	0,4	1	1
6	$x_{6j}$	0,4	0,6	0,8	0,6	0,4	0,8	0,6	0,6	0,6	0,4	0,8	0,6	0,6	1	1
7	$x_{7j}$	0,6	0,4	0,8	0,6	0,4	1	0,4	0,6	0,4	1	0,8	0,2	0,4	1	1
8	$x_{8j}$	0,8	0,6	0,8	0,4	0,4	0,6	0,8	0,6	0,6	0,8	0,4	0,6	1	1	1
<b>II. MEHNAT BOZORINING SAMARADORLIK INDIKATORLARI</b>																
9	$x_{9j}$	0,6	0,8	0,8	0,8	0,6	0,8	0,6	0,6	0,6	0,6	1	0,6	0,6	1	1
10	$x_{10j}$	0,6	0,8	0,8	0,6	0,4	1	0,8	0,8	0,4	0,4	1	0,6	0,8	1	1
11	$x_{11j}$	0,6	0,8	0,8	0,8	0,6	0,8	0,8	0,6	0,8	0,8	1	0,8	0,8	1	1
12	$x_{12j}$	1	0,8	1	0,8	0,6	0,6	1	1	0,8	0,6	0,8	0,6	0,8	0,8	1
13	$x_{13j}$	0,2	0,6	0,8	0,6	0,4	1	0,2	0,6	0,4	0,6	0,8	0,2	0,8	1	1
14	$x_{14j}$	1	0,8	0,8	0,8	0,8	0,8	0,8	0,8	0,6	1	0,6	0,6	0,8	1	1
<b>III. DEMOGRAFIK INDIKATORLARI</b>																
15	$x_{15j}$	0,4	1	0,4	0,4	1	0,2	0,8	1	0,8	0,2	0,8	1	0,4	0,6	1
16	$x_{16j}$	0,6	0,8	0,4	0,4	0,8	0,2	0,8	1	0,8	0,2	1	1	0,6	1	1
17	$x_{17j}$	0,2	1	0,2	0,4	0,4	0,2	0,8	0,6	0,4	0,6	0,6	1	0,8	1	1
18	$x_{18j}$	0,8	0,6	0,6	0,4	0,8	0,2	0,2	0,4	1	0,4	1	1	0,6	0,6	1
19	$x_{19j}$	0,8	0,8	1	1	0,8	1	0,8	0,8	0,8	0,8	0,8	1	0,8	1	1
20	$x_{20j}$	0,6	1	0,4	0,4	1	0,2	1	0,8	0,8	0,2	0,8	0,6	0,6	0,8	1

O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reytingni baholashda 14 ta hududni 3 ta indikator va 20 ta subindikatoridan foydalanib,  $x_{1j}$  dan  $x_{20j}$  gacha bo'lgan matritsa koefitsenti aniqlangan. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlanish indikatorni hududlarni reyting bahosi quyidagi formula bilan aniqlangan:

<sup>18</sup>Муаллиф ишланмаси

$$R_j = \sqrt{(1-x_{1j})^2 + (1-x_{2j})^2 + (1-x_{3j})^2 \dots + (1-x_{nj})^2} \quad (2)$$

$j$ - hududlarni reyting darajasi koeffitsenti.

2-formula orqali  $R_j$  reyting darajasi aniqlangan koeffitsent “eng kichik” bo‘lgan hududni reyting bahosi “eng baland” bo‘ladi. Aksincha “eng katta” reyting bahosi bo‘lsa, unda “eng past” deb hisoblanadi. Chunki hisoblangan 2-jadvaldagi  $x_{1j}$  dan  $x_{20j}$  gacha koeffitsentda xududlarni reyting bahosini  $R_j$ ni qiymati topilgan. Bu ko‘rsatkichni 2-formula orqali aniqlash mumkin (3-jadvalga qarang).

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini reyting darajasini guruhlariga tabaqalashtirish<sup>19</sup>

Hududlarni reyting darajasi	Toshkent shahri $k_{14}$	Toshkent viloyati $k_{11}$	Andijon viloyati $k_{12}$	Xorazm viloyati $k_{13}$	Navoiy viloyati $k_{16}$	Buxaro viloyati $k_{13}$	Buxaro viloyati $k_{13}$	Farg‘ona viloyati $k_{12}$	Qoraqalpog‘iston Respublika $k_{11}$	Jizzax viloyati $k_{14}$	Namangan viloyati $k_{17}$	Sirdaryo viloyati $k_{10}$	Qashqadaryo viloyati $k_{15}$	Surxondaryo viloyati $k_{19}$
$R_j$	0,63	1,13	1,33	1,59	1,61	1,62	1,71	1,85	1,92	1,98	2,0	2,06	2,09	2,24
	Iqtisodiy barqaror		Barqaror rivojlanish				O‘rtacha rivojlanish			Pastroq rivojlanish		Eng past rivojlanish		

3-jadvalga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi aholi turmush sifatini oshirish omili sifatida inson salohiyatidan maksimal foydalanish va hududlararo tafovutlarni kamaytirish orqali inklyuziv o‘shirish  $R_j$  - reyting darajasini guruhlariga tabaqalashtirish qiymati chegaraviy mezonni [0;2,5] oralig‘ida berilgan. Chunki [0,63;1,13] “iqtisodiy barqaror”, [1,33-1,62] “barqaror”, [1,71-1,92] “o‘rtacha rivojlanish”, [1,98-2,0] “pastroq rivojlanish”, [2,06-2,24] “eng past rivojlanish” bo‘yicha guruhlash mezonlari ishlab chiqilgan. Shuningdek,  $R_j$  hudud qiymati “eng kichik” bo‘lsa, o‘sha xududni reytingi “eng yuqori” deb hisoblanadi.

3-jadval asosida “Toshkent shahri”  $R_{14}=0,63$ , “Toshkent viloyati”  $R_{11}=1,13$ ga teng reyting darajasi “iqtisodiy barqaror” viloyatlar Toshkent viloyati va Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan. Reyting darajasi “barqaror rivojlanish” guruhiga kiruvchi Andijon, Xorazm, Navoiy va Buxoro viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Hisoblangan reyting darajasi “o‘rtacha rivojlanish” guruhiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Farg‘ona viloyatlari kiradi. Reyting darajasi “pastroq rivojlanish” guruhiga Jizzax va Namangan viloyatlariga to‘g‘ri kelgan. Reyting darajasi “Eng past rivojlanish” guruhiga kiruvchi Sirdaryo, Qashqadaryo hamda Surxondaryo viloyatlariga to‘g‘ri kelgan.  $R_j$ ni natijalariga qarab, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida 3 ta indikator va uni 20 ta subindikatorlari asosida O‘zbekiston

<sup>19</sup> Muallif ishlanmaci

Respublikasini iqtisodiy rivojlanish va samaradorlik ko'rsatkichlari, mehnat bozori samaradorligi va demografik ko'rsatkichlari orqali reyting baholash darajasi aniqlangan.

Aholi jon boshiga yaratilgan sof milliy daromad (SMD) iqtisodiy taraqqiyotni va aholi turmush darajasini ifodalaydi. Buni quyidagicha belgilaymiz:

$$SMD = YaMD - A \quad (4)$$

A-Amortizatsiya (iste'mol qilingan asosiy kapital).

$$ATDK = \frac{SMD}{AO'S} \quad (5)$$

bu yerda ATDK – aholi turmush darajasi koeffitsenti; SMD –sof milliy daromad; AO'S–aholi o'rtacha soni.

#### 4-jadval

### O'zbekiston Respublikasi sof milliy daromadni o'zgarishi va aholi turmush darajasi indeksini aniqlash<sup>20</sup>

Ko'rsatkichlar nomi	2010-yil		2015-yil		2020-yil		2022-yil	
	Miqdori	O'sish sur'ati, %						
Doimiy narxlarda YaMD o'tgan yil narxida, mlrd so'm	65838,9	107,1	200316,3	107,2	543343,2	102	758245,2	105,7
Amortizatsiya (yakuniy iste'mol xarajatlari)	49635,5	109,7	158633,6	110,9	404568,6	100,4	602145,3	112,6
Sof milliy daromad, mlrd.so'm	16203,4	155,7	41682,7	119,4	138774,6	115,1	156099,9	120,6
Aholisi soni, ming kishi	28001,4	101,7	31022,5	101,7	33905,2	102	35271,3	102,1
Aholi tumush darajasi	0,5786	X	1,3436	X	4,093	X	4,426	X
Turmush darajasi indeksi	2,32		3,046		1,08			
					7,65			

Aholi turmush darajasi yuksalishi uchun SMDni o'sish sur'ati aholini o'sish sur'atidan yuqori bo'lishi lozim. Buni aniqlash uchun turmush darajasi indeksini hisoblash kerak:

$$Iatd = (SMD1/A_{ur1}) / (SMD0/A_{ur0}) \quad (6)$$

$Iatd = Ktd_{2015} / Ktd_{2010} = 1,3436 / 0,5786 = 2,32$  (2010-2015 yillar oralig'ida indeks);

$Iatd = Ktd_{2020} / Ktd_{2015} = 4,093 / 1,3436 = 3,046$  (2015-2020 yillar oralig'ida indeks);

$Iatd = Ktd_{2022} / Ktd_{2020} = 4,426 / 4,093 = 1,08$  (2020-2022 yillar oralig'ida indeks);

$Iatd = Ktd_{2022} / Ktd_{2010} = 4,426 / 0,5786 = 7,65$  (2010-2022 yillar oralig'ida indeks).

Tahlil natijasi 2010-2015-yillarda turmush darajasi indeksi 2,32 ni, 2015-2020-yillar oralig'ida turmush darajasi indeksi 3,046 ga teng bo'lgan. Shuningdek, 2020-2022-yillarda esp turmush darajasi indeksi 1,08 koeffitsentga teng bo'lgan.

<sup>20</sup> Muallif ishlanmaci

Bundan ko‘rinib turibdiki, 2010-2022-yillar oralig‘ida turmush darajasi indeksi 7,65 koeffitsentga oshgan. Natijada aholini ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, YaIM, SID ortgan, ayniqsa 2020-yilda eng ko‘p iste‘mol qilingan harajat oldingi yillarga nisbatan ortgan. Ushbu iste‘mol xarajatni bugungi kungacha aholi turmush darajasiga va iqtisodiy o‘shishga ta’siri ham ko‘rsatmoqda.

Barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash maqsadida biz YaIMni xarajatlar usuli bo‘yicha formulasidan foydalanib, unga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan.

$$YIM(Y) = C + I + G + Xn \quad (2.3.5)$$

C-Yakuniy iste‘mol xarajatlari;

I-Asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi;

G-Yalpi jamg‘arish;

Xn-Tovarlar va xizmatlar eksport-import saldosi

Chunki omillar bir biri bilan qanchalik bog‘liqlikdaligini.

$$Y = a_0 + a_1 * C + a_2 * I + a_3 * G + a_4 * X_n \quad (2.3.6)$$

Bu yerda:

$a_0, a_1, a_2, a_3, a_4$ - bular regressiya koeffitsentlari.

## 5-jadval

### YaIMga ta’sir etuvchi omillarni 2010-2022-yilgacha ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyasion koeffitsienti<sup>21</sup>

	<i>Y</i>	<i>C</i>	<i>I</i>	<i>G</i>	<i>Xn</i>
<i>Y</i>	1				
<i>C</i>	0,999282	1			
<i>I</i>	0,98933	0,98836	1		
<i>G</i>	0,988984	0,989667	0,997401	1	
<i>Xn</i>	-0,90935	-0,89563	-0,8833	-0,86558	1

5-jadvalni natijaviy omil YaIM hajmiga ta’sir etuvchi omillar yakuniy iste‘mol xarajatlari ( $r_{Y,S}=0,99282$ ), asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi ( $r_{Y,I}=0,98933$ ), yalpi jamg‘arish ( $r_{Y,G}=0,988984$ ) va tovarlar va xizmatlar eksport-import saldosi ( $r_{Y,Xn}=-0,90935$ ) kuchli zichlikda bog‘langan bo‘lib, omillar o‘rtasida  $r_{x_1,x_2} < 0,8$  shartga ko‘ra multikoleniarlik mavjud emasligidan kuzatilayotgan bog‘liqlik o‘rtasida regressiya tenglamasini aniqlashni Exsel dasturi orqali davom ettirish mumkin. Har bir omillarning ta’sirchanlik koeffitsienti bo‘yicha ko‘p omilli regresiya tenglamasi tuzildi:

$$Y = 9849,3 + 1,153 * C + 0,174 * I + 0,035 * G - 0,227 * X_n \quad (2.3.7)$$

